

2024  
2(16)

**IQTISODIYOT VA TURIZM**  
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

**ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ**  
международный научно-  
инновационный журнал

**ECONOMICS AND TOURISM**  
international scientific and  
innovative journal


ISSN 2181-2551  
E-ISSN 2181-2561

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



ISSN 2181-2551  
E-ISSN 2181-256X

**"IQTISODIYOT VA TURIZM"**  
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

**«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»**  
международный научно- инновационной журнал

**"ECONOMICS AND TOURISM"**  
international scientific and innovative journal

**№2(16) 2024**

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022 yil 30 apreldagi 315/5-son qarori bilan iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida

*"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali*

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy-innovatsion jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

*«Экономика и туризм» международный научно- инновационной журнал*

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-инновационном журнале «Экономика и туризм» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

*"Economics and Tourism" international scientific and innovative journal*

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific and innovative journal "Economics and Tourism" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.



# EDITORIAL BOARD



## *Chairman of the Editorial Board*

**Navruz-Zoda Bakhtiyor Negmatovich**

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

## *Vise-Chairman of the Editorial Board*

**Khamraev Khalim Razikovich**

Bukhara State University Docent Doctor of economical sciences

## *Main editor*

**Khidirova Gavkhar Rustamovna**

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

## *Members of editorial board*

**Khamidov Obidjon Khafizovich**

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

**Akhmedov Tursun Mukhitovich**

Institute of forecasting and macroeconomic researcher (IFMR) Deputy director professor,  
Doctor of Economic Sciences (DSc)

**Maydyrova Aigul Bulatovna**

Doctor of Economics, Professor. Head Department of "Economics and Entrepreneurship" of the Faculty of Economics of the Eurasian National University L.N. Gumilyov

**Ivlieva (Shaposhnikova) | Olga Vasilevna**

Doctor of Geography, Professor of the Tourism Department of the Higher School of Business of the Southern Federal University

**Mutalieva Lyailya Maratovna**

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor, Head of the Department "Tourism" of the Eurasian National University L.N. Gumilyov

**Djavlonbek Kadirov**

Place of work: Victoria University of Wellington PhD in Marketing

**Yuldashev Shuxrat Ganievich**

National university of Uzbekistan professor Doctor of economic science

**Khazhimov Pazliddin Zukurovich**

National university of Uzbekistan Docent Doctor of philosophy (PhD) of Economic sciences

**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**

Doctor of Economic Sciences, Professor, Director of the Department for the Development of Education, Science and Research of the Ministry of Culture and Tourism of the Republic of Uzbekistan

**Navruz-zoda Zebiniso Bakhtiyorovna**

Doctor of philosophy on economic sciences (PhD), Associate Professor Department of Economics of the Bukhara State University

**Oripov Makhmud Ashurovich**

Bukhara State University associate professor Department of "Agribusiness and Agro Logistics"

**Abdullaev Ilyos Sultanovich**

Urgench State University professor Doctor of economic sciences

**Alimova Mashhura Toirxonovna**

Samarkand Institute of Economics and Service Professor of the Department of Management  
DSc in Economics

**Juraev Abror Turobovich**

Bukhara State University Vice-rector for International Cooperation Candidate of economic sciences

**Ibragimov Nutfillo Salimovich**

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

**Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich**

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

**Tadjieva Sayyorakhon Uralovna**

Bukhara State University Head of the Department Candidate of economic sciences

**Rustamov Farrukh Rustam ugli**

Bukhara State Pedagogical Institute Docent Doctor of philosophy (PhD) Sociological sciences

**Tukhsanov Kudratillo Nozimovich**

Tashkent State University of Economics Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

**Hudayberganov Dilshod Tuxtabaevich**

Urgench State University of Economics Professor, Doctor of Economical sciences (DSc), associate professor

**Responsible editor: Gavhar Xidirova**

**Web-administrator: Erkin Farmonov**



## MUNDARIJA

<b>Alisher Eshtaev, Khusniddin Egamnazarov.</b> Establishment Prospects of the Toprak-kala Historical Ethno-Museum .....	5
<b>Khashimov Pazliddin.</b> Economic development in latin american countries: its potential growth opportunities and prevalent challenges .....	11
<b>Ахмедова Азиза Тохировна.</b> Привлечение свободных денежных средств населения в инновационно-инвестиционный капитал .....	17
<b>Наврүз-Зода Б.Н.</b> Роль информационных технологий при организации управленческого учета затрат в сфере обслуживания.....	25
<b>Бибутова Шахло Саъдуллаевна.</b> Совершенствование механизмов корпоративного управления в химической промышленности.....	31
<b>Мусаева Жамила Кароматовна.</b> Необходимость управления обновлением основных активов в промышленных предприятиях Узбекистана. ....	40
<b>Анваров Нодир Аллаёрович.</b> Анализ финансовых инструментов и механизмов поддержки агротуризма в Самарканде.....	50
<b>Ergashev R.X.</b> Qishloq xo‘jaligining meva-sabzavotchilik yo‘nalishlarida klaster-kooperatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirish masalalari .....	65
<b>Юлдуз Пирназаровна Урунбаева.</b> Аҳолининг маънавий-маърифий қадриятлари дунёсини бойитиш, ёш авлодни ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялашда музейларнинг аҳамияти .....	74
<b>Isayev Atabek Djurabayevich.</b> “Ko‘chish samarasi”ning narxlar barqarorligiga ta‘siri va uni raqamli iqtisodiyot sharoitida ta‘sirini kamaytirish .....	84
<b>Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna.</b> Insonni tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo‘lishining an‘anaviy va zamonaviy shakllaridan foydalanishning konseptual asoslari .....	93
<b>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Atajanova Guli Maxsudovna.</b> Iqtisodiyot tarmoqlarida bozor xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari .....	106
<b>Ochilov Vahob Shavkatovich.</b> Yo‘l-qurilish sohasida davlat-xususiy sherikligining fransiya tajribasi .....	114
<b>Jurayev Navruz Jurayevich.</b> Oilaviy korxonani boshqarishning iqtisodiy-huquqiy xususiyatlari va uslubiy jihatlari.....	127
<b>Ergasheva Aziza Farmonovna.</b> Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari bozori holatini anketa-so‘rovi usuli orqali baholash .....	135
<b>Акбаров Хусниддинжон Мўйсин ўғли.</b> Ўзбекистон Республикасида валюта бозорининг жорий ҳолати ва уларнинг ривожлантириш истиқболлари .....	146
<b>Xodjayev Anvar Rasulovich.</b> Xalqaro franshizlarni jalb qilish uchun raqamli marketing vositalari va usullaridan foydalanish istiqbollari .....	155
<b>Сафаров Фарход Анварович.</b> Роль и эффективность инноваций в развитии сферы услуг .....	164



UDK:334

*Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna*

Marketing va menejment kafedrasi

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

[navruzzoda82@gmail.ru](mailto:navruzzoda82@gmail.ru)

## INSONNI TADBIRKORLIK QOBILIYATI NAMOYON BO'LISHINING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY SHAKLLARIDAN FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Annotatsiya:** Maqolada tadbirkorlik qobiliyatining namoyon bo'lish shakllarini 2 ta guruhga - an'anaviy va zamonaviy shakllarga ajratib o'rganilgan. An'anaviy shakllarga "yakka tartibdagi tadbirkor", "kichik tadbirkor", "menejer", "oilaviy tadbirkor" va zamonaviy shakllarga "o'zini o'zi band qilgan shaxslar", "ichki tadbirkor", "innovatsion tadbirkor", "investor", "biznes-konsultant", "mahallada tadbirkorlikning tashkilotchisi" kabi tadbirkorlik turlari tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy faoliyat, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tadbirkorlik qobiliyati, boshqarish strategiyasi, indikator, yakka tartibdagi tadbirkor, kichik tadbirkor, menejer, oilaviy tadbirkor, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, ichki tadbirkor, innovatsion tadbirkor, investor, biznes-konsultant.

**Kirish.** Jahonda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholini iqtisodiy salohiyati va farovonligini oshirish, ularning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik alohida o'rin tutadi. "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga asosan Yaponiya va Xitoy iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 60 foiz, Fransiyada – 56 foiz, AQSH va Buyuk Britaniyada – 51 foizni tashkil etadi" [37]. Pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiyot bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun xorijda sinalgan zamonaviy usullar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati sifatini yuksaltirish va ularda tadbirkorlik qobiliyatining zamonaviy shakllarini rivojlantirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini sifat jihatidan yuksaltirishda ularning iqtisodiy salohiyati, innovatsion faoliyati, investitsion jozibadorligi, raqamlashtirish mexanizmi, raqobatbardoshligi, samaradorligini oshirishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada kichik biznes subyektlari ishtirokida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning institutsional asoslarini yaratish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini tashkil etish va boshqarish strategiyasini ishlab chiqish kabi yo'nalishlardagi faoliyatlariga alohida diqqat qaratilmoqda.

**Metodologiya.** Xorijiy va mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlarning qator ilmiy ishlari bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini baholash mezon va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish masalalariga bag'ishlangan. Jumladan, tadbirkor shaxslarning tadbirkorlik qobiliyati ilk marotaba Richard Kantilyon, Adam Smit, Jan-Batist Sey, Frensis Uoker, V.Zombart, Yozev Shumpeter, Djon Keyns, Devid Makklelland, Piter Druker kabi klassik iqtisodchilarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, chet el olimlarining tadbirkorlik qobiliyatini tavsiflovchi ko'nikmalarni tasniflashga bag'ishlangan tadqiqotlari ma'lum.

MDH mamlakatlari olimlari T.Matveyeva, S.V.Terebova, P. S.Pleshakov, YE.A.Chekmareva, O.R.Verxovskaya, M.V. Doroxina, YE.K.Klimova, T.A.Fotekova, S.V.Mitroxina, YE.N.Vlasova tadqiqotlarida biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini baholashning uslubiy yondashuvlari ustida ish olib borilgan. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ilmiy va uslubiy muammolari S.G'ulomov, Y.Abdullayev, M.Abdurahmonova, Q.Muftaydinov, H.Abulqosimov, A.Qulmatov, B.Berkinov, M.Abdurahmonova, F.Mamatov, N.Murodova, U G'afurov, M.Eshov, B. Yusupov, M.Masharipova, A. Doschanov kabi iqtisodchi olimlar ishlarida keng yoritilgan.

Biroq iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida tadbirkorlikning sifat o'lchovi bo'lgan tadbirkorlik qobiliyatini baholash mexanizmi masalalari alohida, monografik planda tadqiq etilmagan.

Maqolada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil, kompleks yondashuv, ekspert baholash, statistik kuzatish, ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlaridan biri ishlab chiqarishning shaxsiy omili sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatini biznes amaliyotida namoyon etib, unumli ishlata olishdan iborat. Tadbirkorlik faoliyatining sifat o'lchovi va o'ziga xos tovar bo'lmish "tadbirkorlik qobiliyati" mikroiqtisodiyotda turli shakllarda namoyon bo'lib, ayirboshlash predmetiga aylanadi. Tadbirkorlik qobiliyatini ayirboshlash xususiyatlarini aniqlash maqsadida, uning namoyon bo'lish shakllarini biz umumlashgan holda 2 ta guruhga ajratishni tavsiya etamiz:

I.Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining "yakka tartibdagi tadbirkor", "kichik tadbirkor", "menejer", "oilaviy tadbirkor" kabi an'anaviy shakllari.

II.Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining "o'zini o'zi band qilgan shaxslar", "ichki tadbirkor", "innovatsion tadbirkor", "investor", "biznes-konsultant", "mahallada tadbirkorlikning tashkilotchisi" kabi zamonaviy shakllari.

Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining an'anaviy va zamonaviy shakllariga tafsilot 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, har birining o'ziga xos xususiyatlarini maqolada batafsil ko'rib chiqamiz.

1. Yakka tartibdagi tadbirkor yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Uning o'ziga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tish tartibining joriy qilinganligi;
- ushbu tadbirkorlik shaklidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlarning mavjudligi;
- xodimlarni yollash huquqiga ega ekanligi;
- xususiy ishni boshlash uchun davlat tomonidan subsidiyalar berilishi;
- shug'ullanishi mumkin bo'lgan 88 ta faoliyat turlari 2011-yil 6-yanvar kunidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori [5] bilan aniq belgilab qo'yilganligi;
- individual tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun mehnatsevarlik qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, jasorat, topqirlik, muloqotga kirishuvchanlik kabi shaxsiy sifatlarining zarurligi va boshqa.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligining asosiy iqtisodiy bo'lim tahlilchilarining fikriga ko'ra, 2012-yilda 2016-yilga nisbatan mamlakatda 479 ming tadbirkor faoliyat yuritib, deyarli ikki baravar ko'paydi. Boshqacha aytganda, respublikamizda qariyb 10 million kishi (iqtisodiy faol aholining 67,2 foizi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanadi [26]. Bu indikator tadbirkorlik faoliyatining mamlakatimizda ommaviylik xususiyati va kambag'allikni qisqartirishning asosiy omiliga aylanganligidan dalolat beradi.

2. Kichik tadbirkor "korxonaga egasining mehnat va korxonani boshqarishga munosabati hamda ishlovchilar bilan aloqasi darajasidan, miqdoriy mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishchilar soni va yillik tovar aylanmasidan foydalanish" [23] o'lchovlari bilan farqlanib turadi. Bunday tadbirkorning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatish;
- tadbirkorlik korxonasi va mikrofirmalarning egasi, ishchisi va boshqaruvchisi uning ta'sischi hisoblanish;
- cheklangan miqdorda yollanma ishchilar mehnatidan foydalanish;
- korxonaga doirasida foyda miqdorini ko'paytirish imkoniyatining ko'pligi;
- kichik tadbirkor biznes yuritish kasbiy malakasiga ega bo'lishi;
- kichik korxonalar hunarmand maqomiga ega bo'lishi;
- korxonaning yillik tovar aylanmasi asosida soliqqa tortish tizimining mavjudligi;
- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning munosib mexanizmlarining mavjudligi va b.q.

## 1-jadval.

**Inson tadbirkorlik qobiliyatining namoyon bo'lish shakllariga tafsilot**

T\r	Tadbirkorlik qobiliyatining namoyon bo'lish shakllari	Tafsilot
1	Yakka tartibdagi tadbirkor	mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiradigan jismoniy shaxs [6] va endilikda besh nafargacha xodimlarni yollash huquqiga ega [7].
2	Kichik tadbirkor	cheklangan miqdorda yollanma ishchilar mehnatidan foydalanuvchi tadbirkorlik, korxonalar va mikrofirmalar egasi [23].
3	Menejer (ingl. manager, - «boshqarish»)	korxonalar va kompaniyalar egalari bo'lmagan, maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biluvchi malakali mutaxassis-yollanma boshqaruvchi [27].
4	Oilaviy tadbirkor	oilalar a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi [8].
5	Ichki tadbirkor	bu tadbirkorlik korxonalarining yollanma xodimi, u biznes egasi singari barcha muammoni hal qilish uchun tavakkal va imkoni boricha sa'y-harakat qiladi [22].
6	O'zini o'zi band qilgan shaxslar	mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar [3].
7	Innovatsion tadbirkor	yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar [1].
8	Investor	foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o'zining mablag'larini va (yoki) qarz mablag'larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti [9].
9	Biznes-konsultant	biznes samaradorligini, tadbirkorlik jarayonlarining unumdorligini va kompaniyalar foydasini oshirish maqsadida tadbirkorlar va menejmentga ekspert yordam ko'rsatuvchi [35].
10	Mahallada tadbirkorlik tashkilotchisi	mahallada istiqomat qiluvchi aholining turli shakllardagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun munosib imkoniyatlarini yaratib berish evaziga ishsiz va kam ta'minlangan odamlarning mehnat layoqati va tadbirkorlik qobiliyatini ro'yyobga chiqarishda ko'maklashadigan hokimning yordamchisi [2].

Manba: muallif tonidan ishlab chiqilgan.

Statistik ma'lumotlarga (2-jadval) [30] ko'ra, respublikamizda 2023 yil 1-yanvar holatida jami 688,4 mingta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, undan kichik korxonalar 36,4 mingta va mikrofirmalar – 581,3 mingtani tashkil etadi. 2024-yilda 2015-yilga nisbatan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 2-martadan oshiq ko'paygan. Bu



ma'lumotlar aholining tadbirkorlik qobiliyatini yuridik shaxs tashkil etilgan holda tadbirkorlik faoliyati bilan faol shug'ullanishda namoyon bo'lishidan dalolat beradi.

2-jadval

**O'zbekistonda 2015-2024-yillarda ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, ming)**

Korxonalar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami, shu jumladan:	273,6	278,5	285,4	300,2	339,0	419,5	503,5	557,8	627,5	688,4
kichik korxonalar	22,6	22,7	18,0	19,2	20,7	22,5	25,5	28,6	31,5	36,4
mikrofirmalar	198,5	203,3	207,6	223,2	255,5	331,4	411,4	460,5	526,4	581,3
boshqalar	52,5	52,5	59,8	57,8	62,8	65,6	66,6	68,7	69,6	70,7

Manba: O'zbekiston respublikasidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot. –T.: 2023. 18, 26 b.  
[https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/registrpressrelis\\_11\\_04\\_2023\\_uzb.pdf](https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/registrpressrelis_11_04_2023_uzb.pdf)

3. Menejer. Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining uchinchi shaklini korporativ tadbirkorlik tizimida menejer lavozimini egallangan holda kompaniyani boshqarish faoliyati bilan shug'ullanish tashkil etadi. Biznesning rivoj topib, yakka tartibdagi tadbirkorligidan sherikchilikka va undan korporativ tadbirkorlik darajasiga ko'tarilishi bilan biznes-funksiyalari murakkablashib boradi-da, ularni bajarish uchun professional boshqaruvchi – menejerlarga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Menejerlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- mulk egasidan boshqarish funksiyalarining ajralishi natijasida kompaniyani boshqarish uchun professional menejerlar ishga yollanishi va ular ham rahbar va ham bo'ysunuvchi hisoblanishi;

- menejerlarning boshqaruv mehnati evaziga kompaniyadan ish haqi olishi;

- menejerlar faoliyati menejment bo'yicha malakaviy talablarga javob berib, muvaffaqiyatli ishbiarmonlarga xos qator fazilartarga ega bo'lishi bilan bog'liqliligi;

- tavakkalchilikning yuqori darajaliligi va takrorlanmaydigan vaziyatlar bilan to'qnashuvi;

- aqliy mehnatga asoslangan menejerlik ishi ham jismoniy va ham aqliy mehnat bilan shug'ullanayotgan ishchi-xodimlarning faoliyatini boshqarishga yo'naltirilganligi.

Menejer qaysi sohada ishlashidan qat'i nazar, uning kompaniyadagi faoliyatining beshta asosiy turini ajratish mumkin: 1) maqsadlarni belgilash; 2) to'g'ridan-to'g'ri tashkil etish; 3) motivlashtirishni qo'llab-quvvatlash va jamoada aloqani ta'minlash; 4) uning natijalarini baholash va tahlil qilish; 5) xodimlar, jumladan, o'zining kompetentligini oshirishga hissa qo'shish [29]. Menejering kompaniyadagi asosiy funksiyalariga tashkil etish; motivlashtirish va rag'batlantirish; hisob va nazorat; rejalashtirish va tartibga solish kiradi. Menejerlarning bunday menejerlik kompetensiyasini shakllantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida "Menejment" bakalavr ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlanadi. Uning o'quv rejasida "Menejment asoslari", "Menejment marketing", "Personalni boshqarish", "Innovatsion menejment", "Strategik menejment", "Sifat boshqaruvi" kabi maxsus fanlarning o'qitilishi ko'zda tutilgan. Menejment bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislar aksiyadorlik kompaniyalarda top, o'rta va past darajalardagi menejerlik lavozimlarda muvaffaqiyat bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Piter Drukerning ta'biriga ko'ra: "Ertangi kun menejerlari birinchi navbatda o'zlari ishlayotgan tashkilotning samarali ishlashi uchun javobgar bo'lishlari kerak. Ular mehnat unumdorligi va xodimlarning yutuqlariga mutassadi hisoblanadilar" [12].

O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan aksiyadorlik jamiyatlarining 2023-yilda umumiy soni 616 tani hamda qo‘shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari mulk shaklidagi korxonalar soni esa 12693 tani tashkil etadi [30]. Bunday korxonalar va tashkilotlarni top-menejerlar boshqaradi va ular boshqarayotgan tadbirkorlik subyektlarining ish samaradorligi birinchi navbatda, ish boshqaruvchilarining menejerlik mahoratining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun mamlakatimizda yakka tartibdagi va sherikchilik shakllaridagi tadbirkorlik bilan birga korporativ shaklidagi tadbirkorlikni ham jadal rivojlantirishda menejer kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishga e‘tibor qaratish lozim.

4. Oilaviy tadbirkor. Mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. “Oila boshlig‘i tomonidan tashkil etilgan va unda oila a‘zolari turli lavozimlarda ishlaydigan biznes turi” [11] oilaviy tadbirkorlik deyiladi. Oilaviy tadbirkorlik oila a‘zolari mehnatiga asoslanadi va quyidagi shakllarda olib boriladi: 1) yakka tadbirkorlik oilaning bitta a‘zosi tomonidan olib boriladi va unda oilaning boshqa a‘zolari ko‘makchi sifatida biznes ishida qatnashishi mumkin; 2) kasanachilik shaklida faoliyat ko‘rsatadi; 3) oilaviy korxonalar shaklida oila a‘zolari tomonidan xo‘jalik yuritiladi.

Oilaviy tadbirkorning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- oilaviy biznes egasining o‘z oila a‘zolarini boshqa xodimlariga nisbatan ishga olishning xususiyatlari;

- xodim sifatidagi oila a‘zolariga mehnatga haq to‘lash xususiyatlari;

- oilaviy korxonalar rahbarining biznes va xodimlar bilan munosabatlarining o‘ziga xosligi;

- nizo va ziddiyatlarga moyilligi, chunki ular oilaviy va ishbilarmon muammolarini birlashtiradi;

- uzoq muddatli rivojlanishga mo‘ljallanganligi;

- xodimlarning nisbatan barqarorligi;

- mulkni ko‘paytirishga intiluvchanligi va boshqalar.

Oilaviy biznes instituti (Institute for Family Business, IFB) ma‘lumotlariga muvofiq, “Buyuk Britaniyada oilaviy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 30,7% va xususiy sektor korxonalar sonidagi ulushi 87,6% ni, Ispaniya davlatida bu raqamlar shunga mos ravishda - 65 va 75%, AQShda - 60 va 90% ni tashkil etadi. Italiya eksportining 18 foizi esa aynan oilaviy tadbirkorlikka to‘g‘ri keladi” [31].

### 3-jadval

#### O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	Ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni	8712	12184	16154	28695	45954	48 252	56 547
2	Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni	2863	3964	4473	13205	18024	19300	22619
3	Faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar soni	8348	11679	15507	27512	43122	45527	52 906

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasini (3-jadval) [32] o‘rganish shuni ko‘rsatayotgani, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar 2016-yilda mamlakatimizda 8348 tani (ro‘yxatidan o‘tganlari 8712ta) ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 56547 ta (ro‘yxatidan o‘tganlari 52906ta) ga yetgan. 2016-2022-yillarda faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 6,3-martaga, yangi tashkil etilganlari esa 7,9-martaga ko‘paygan. Oilaviy tadbirkorlik korxonalarining oshishi aholi kambag‘allikni qisqartirishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi.

5. Ichki tadbirkor (intraprenyor). Kichik biznesning yuksalib borishi sari sekin-astalik bilan o‘rta va yirik biznes darajasiga ko‘tarilib boradi va ularda ko‘p sonli yollanma xodimlar faoliyat

ko'rsatadi. O'rta va yirik biznes korxonalarida faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislar orasida tadbirkorlik qobiliyati rivojlangan xodimlar ham faoliyat ko'rsatib, mazkur korxonaning tadbirkorlik resursini tashkil etadi. Bunday toifa xodimlarga korxonahabariyatitomonidan tegishli shart-sharoitlar yaratilib, munosib rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilganda, ular kasbiy mehnat faoliyati bilan bir qatorda korxonahabariyatitomonidan rivojlanish uchun o'z tadbirkorlik qobiliyatini ham namoyon qilib boradi. Ya'ni bu yerda gap "ichki tadbirkorlik" va "ichki tadbirkorlar" haqida ketyapti.

"Ichki tadbirkorlik" inglizcha "intrapreneurship" (ruschasida "intraprenerstvo") so'zidan olingan bo'lib, ingliz tilidagi adabiyotlarda uni "tashkilotda ishlaydigan odamlar tomonidan doimiy faoliyat doirasidagi o'zgarishlar tashabbuskorlari" deb, ta'riflanadi. "Ichki tadbirkorlik faoliyati (intrapreneuring) – korporativ ishda ishlayotgan bo'lsa-da, o'z kompaniyalari tomonidan o'z foydalari va kompaniyalar uchun o'z g'oyalari yaratish uchun erkinlik va rag'batga ega bo'lgan ichki tadbirkorlardir" [33]. Ichki tadbirkorlik kompaniya o'z xodimlarining ijodiy salohiyatidan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ichki tadbirkor yollanma xodim bo'lmish o'z tafakkur tarzi bilan jamoasida sezilarli farqlanib turadi va uning ravnaqi uchun xizmat qiladi. Ichki tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- fikr-g'oyalarni yuzaga chiqarish imkoniyatiga egaligi;
- xodimlarning salohiyatini baholash mumkinligi;
- korxonahabariyatitomonidan raqobatbardoshligini ta'minlanuvchanligi;
- yetakchilikni rivojlantirish;
- muammoning innovatsion yechimlarini o'ylab topish imkoniyatlari;
- xodimlarning ijodiy fikrlash va tashabbuskorligini rag'batlantirish;
- menejment funksiyalarini markazsizlashtirish asosida boshqarish qarorlarini qabul qilish jarayonlarini yaxshilash va b.q.

#### 4-jadval

##### Ichki tadbirkor va kompaniya menejeri o'rtasidagi tafovutlar

T/r	Mezonlar	Menejer	Ichki tadbirkor
1	Maqomi	Yollanma ish yurituvchi sifatida ish beruvchiga bo'ysunadi	Yollanma xodim sifatida ish beruvchiga bo'ysunadi
2	Faoliyati	Kompaniya menejeri sifatida menejment funksiyalarini bajaradi	Korxonahabariyatitomonidan va tashkilot mutaxassisi sifatida o'z lavozimidagi kasbiy vazifalarini bajaradi
3	Qarorlar qabul qilish	Korxonadagi sa'y-harakat va niyatlarini amalga oshirish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish	Korxonadagi sa'y-harakat va niyatlarini amalga oshirish uchun birgalikda qarorlar qabul qilish
4	Manfaatdorlik	Aniq belgilangan ish haqi yoki kompaniya daro-madidan foiz hisobida ulush maoshi	Aniq belgilangan ish haqi va tadbirkorlik tashabbusi uchun mukofot
5	Malakaviy talablar	Menejerlik fazilatlari majmui	Professional fazilatlari majmui
Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.			

Qayd qilish joizki, kompaniya mutaxassisi sifatidagi ichki tadbirkor uning professional boshqaruvchi (menejeri) dan farq qiladi (4-jadval). Ichki tadbirkorlik korxonada faoliyat ko'rsatayotgan turli mutaxassis kadrlarning tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish va ayirboshlash uchun munosib shart-sharoitlarini yaratishga qodir tadbirkorlik shakli hisoblanadi.

Shunday qilib, tadbirkorlik qobiliyatini ayirboshlashning "ichki tadbirkor" shaklini qo'llash evaziga mamlakatimizda kichik biznes bilan bir qatorda o'rta va yirik biznesni ham javdal rivojlantirish imkoni yanada ham kengayadi.



6. “O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-son “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”[3] gi qarorning 1-ilovasida “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlangan. Unda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs maxsus mobil ilova yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yoxud davlat soliq xizmati organiga kelgan holda ro‘yxatdan o‘tish mumkinligi va ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida matritsali shtrix kodga (QR-kod) ega bo‘lishi hamda mehnat faoliyatini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari belgilab berilgan.

“Unda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs” yakka tartibdagi tadbirkordan farq qiladi (5-jadval).

5-jadval

**O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkor o‘rtasidagi tafavutlar**

T\r	Mezonlar	O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar	Yakka tartibdagi tadbirkor
1	Ro‘yxatga olish tartibi bo‘yicha	ro‘yxatga olish xabar berish tartibi (maxsus mobil ilova yoxud soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi)da yo‘lga qo‘yilgan	ro‘yxatga olish vaqtinchalik mehnat guvohnomalarini berish va «Biznes navigator» axborot tizimiga asoslanadi
2	Yollanma xodimlar mehnatidan foydalanishi bo‘yicha	o‘z faoliyatida yollanma xodimlar mehnatidan foydalanmaydi	<b>besh nafargacha kishini ishga yollashga ruxsat berildi</b>
3	Ish beruvchilikka egaligi bo‘yicha	ish beruvchiga ega bo‘la olmasligi	ish beruvchiga ega bo‘la olishi
4	Mehnat stajining hisobga olinishi	bir yil uchun 2021-yilning 1-avgust holatida 245 ming so‘m jismoniy shaxslar tomonidan daromad solig‘i to‘lansa, bir yillik ish staji hisobga olinadi.	realizatsiya tushumlari miqdoriga muvofiq soliqlarni to‘lansa, bir yillik ish staji hisobga olinadi.
5	Jismoniy shaxslar daromad solig‘iga (JSHDS) tortilishi bo‘yicha	JSHDSdan ozod qilingan bo‘lib, bir yilda BHMning 1 baravari miqdorida ijtimoiy soliq to‘laydi	JSHDSni to‘laydi
6	Hisobot tartibi	buxgalteriya hisobini yuritish, hisobot yuborish yoki soliq deklaratsiyasini topshirishlari shart emas	buxgalteriya hisobini yuritish, hisobot yuborish yoki soliq deklaratsiyasini top-shirishlari shart
Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.			

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qaroriga muvofiq mamlakatimizda 2020-yil 1-iyuldan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxati kengaytirilib, ularning ro‘yxati 24 tadan 67 taga yetkazildi[4]. **O‘zini o‘zi band qilishning qator afzal tomonlari mavjud.**

**2023-yil yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 2,5 milliondan mingdan ortiq o‘zini o‘zi band qilganlar ro‘yxatga olingan bo‘lib,** shundan 5701 tasi 100 million so‘mgacha, 2715 tasi 100 million so‘m va 200 tasi 1 milliard so‘mdan oshiq yillik daromad ko‘rgan[34].

7. Innovatsion tadbirkor. Tadbirkorlik qobiliyatining muhim fazilatlaridan biri – bu innovatorlikdir. Yangi g‘oyalarni vujudga keltirish, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish va

ularni amalda joriy qilish tadbirkor shaxsga xos fazilat hisoblanadi. Innovatsion tadbirkorlikning xususiyatlariga:

- xarajat talab etiluvchanligi (innovatsiyalarni yaratish va joriy qilish katta hajmda moliyaviy mablag'larni talab qilladi);

- innovatsiyalarni tijoratlashtirishning murakkabligi va uzoq muddat vaqt talab etiladiganligi;

- bilimlarni katta pullarga aylantirish xususiyati;

- yuqori tavakkalchilik xususiyatga egaligi;

- innovatsiyalarni boshqarishda loyihaviy yondashuvni qo'llash zarurligi;

- innovatsion mahsulotni baholashning o'ziga xosligi.

O'zbekistonda 2017-2020-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarda innovatsion faoliyati natijalari (6-jadval) [25] tahlili ko'rsatyaptiki, mamlakatimizning kichik tadbirkorlik sohasida 2020-yilda 2017-yilga nisbatan joriy qilingan innovatsiyalar qariyb 3-martaga va ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar hajmi 6-martaga oshgan. Bu ma'lumotlar kichik biznesda innovatsion tadbirkorligining faollashuvidan darak beradi.

**6-jadval**

**O'zbekistonda 2017-2020-yillarda kichik korxonalar va mikrofirmalarda innovatsion faoliyati natijalari**

T\r	Ko'rsatkichlar	Yillar			
		2017	2018	2019	2020
1	Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar (birlik)	1 223	1 292	4 038	3 535
2	Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)	2 324,3	7 196,3	8 455,4	14 129,1
3	Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlilar (mlrd. so'm)	715,3	1 156,8	1 939,9	1 041,6

Manba: O'zbekistonda kichik tadbirkorlik. 2017-2020. O'zstat. T.: 2021. 187-189 bb.

8. Investor. Investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida ortiqcha moliyaviy mablag'i mavjud bo'lgan tadbirkorlar investitsion faoliyat bilan shug'ullanadi. Ular bu faoliyat bilan ham jismoniy shaxs va ham yuridik shaxs sifatida shug'ullanishi mumkin. Investitsiyalar mo'ljallangan obyektiga ko'ra kapital, moliyaviy va ijtimoiy turlarga bo'linadi. Investitsion faoliyati quyidagi xususiyatlarga ega: noaniqlik (investitsiya faoliyati tavakkalchilikning o'ziga xos "investitsion tavakkal" bilan tavsiflanadi); foydani kutib turish (investitsion jarayonida foyda ancha sekinlik bilan shakllanadi); qaytarilmaslik xususiyati; pul oqimlarining davriyliligi va boshqalar.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy vositalarga investitsiyalar tarkibida aholi va korxonalar moliyaviy manbalari yildan-yilga oshib bormoqda (7-jadval) [24]. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarining 40,8 foizi aynan korxonalar va aholi manbalar hisobidan amalga oshirilgan. Bu ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, bo'sh moliyaviy mablag'lari mavjud bo'lgan ishbilarmon fuqarolar yakka tartibda va kichik korxonalar tashkil etilgan holda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib, foyda olmoqdalar.

7-jadval

**O‘zbekiston bo‘yicha 2011-2020-yillarda korxonalar va aholi tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

Yillar	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, jami (mlrd. so‘m)	Shu jumladan, korxonalar va aholi moliyaviy manbalari hisobidan	
		foizda	mlrd. so‘mda
2011	19500,0	57,1	11134,5
2012	24455,3	56,0	13694,9
2013	30490,1	57,9	17653,8
2014	37646,2	57,7	21721,8
2015	44810,4	56,2	25183,5
2016	51 232,0	54,4	27870,2
2017	72155,2	47,3	34129,4
2018	124231,3	42,0	52177,1
2019	195927,3	29,3	57406,7
2020	210195,1	40,8	85759,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi yillik statistika to‘plami: 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. T.: 2021. 113 b., – 239-240 bb.

9. Biznes-konsultant – bu biznes samaradorligini, tadbirkorlik jarayonlarining unumdorligini va kompaniyaning foydasini oshirish maqsadida tadbirkorlar va menejmentga ekspert yordam ko‘rsatish shaklidir [35]. Biznes-konsalting faoliyatida yillar davomida tadbirkorlik qobiliyatini nazariy va amaliy jihatdan yuksaltirib kelgan tajribali biznes-ekspertlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari namoyandalariga ekspert maslahatlar beriladi. Bunda biznes-maslahatchi boy tadbirkorlik tajribasini biznes vakillarini o‘qitish hamda tadbirkorlik subyektlarini diagnostika o‘tkazish orqali muammolarini yechib berish yo‘li bilan o‘z tadbirkorlik qobiliyatini to‘kaksalik davrigacha namoyon qilgan holda biznes konsalting faoliyati bilan shug‘ullanib, undan daromad oladi.

Biznes-konsalting faoliyatida biznes rahbarlari va kichik, o‘rta hamda yirik tadbirkorlik subyektlari namoyandalariga yillar davomida tadbirkorlik qobiliyatini nazariy va amaliy jihatlaridan rivojlantirib kelgan tajribali biznes-maslahatchilar tomonidan ekspert maslahatlar beriladi.

Biznes konsaltingning asosiy maqsadi korxonaning hozirgi vaqtda qaror topgan iqtisodiy holatini baholash orqali mavjud muammolarini aniqlash va bartaraf etib berishdan iborat. Bunday yordam tajribali tadbirkorlar, ishbilarmonlar va biznes sohasidagi olimlar tomonidan ko‘rsatiladi. Biznes sohasida konsultatsion xizmatlarining quyidagi shakllari va turlari mavjud:

- biznesning strategiyasini yaratish, strategik maqsadlarga erishish bo‘yicha loyihalarni tuzish va joriy etish bilan bog‘liq strategik maslahatlar;
- biznes-modellarni ishlab chiqish;
- turli biznes yo‘nalishlari uchun KPI (muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari) ni ishlab chiqish;
- amaldagi kompaniyalarni funksional diagnostiklash asosida iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv muammolarini aniqlash va yechish yo‘llarini ko‘rsatish;
- korxonaning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan boshqaruv maslahatlar;
- biznes-jarayonlarning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan operatsion maslahatlar;
- bozor va mijozlarni o‘rganish, tovarlarni bozorda o‘rinlashtirish va sotishini ko‘paytirish, bozorni segmentlash, reklama va brendingni tashkil etish bilan bog‘liq marketing maslahatlar.

Biznes-konsalting xizmatlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, yollangan mutaxassis-konsultant korxonalar uchun mutlaqo neytral va yangicha ko‘rinishga ega kishi sifatida uning ijobiy va salbiy tomonlarini xolis baholab beradi. Kasbiy maslahatchilarni tanlash va jalb qilish mezonlari tajribali biznes-ekspertlari tomonidan tavsiya etiladi. Odatda, biznes egasi barqaror va samarali faoliyat ko‘rsatayotgan korxonasining bozordagi ulushini kengaytirish va rentabelligini oshirmoqchi bo‘lganda; korxonalar mutaxassislari va menejmentga metodik va ekspert yordam



kerak bo'lib qolganda; korxonada murakkab va ichki kuchlari vositasi orqali yechish imkoni mavjud bo'lmagan holatda; korxonada biron aniq, misol uchun, tovar mahsuloti eksportini diversifikatsiyalash yoki boshqaruv hisobini joriy etish loyahasini amalga oshirmoqchi bo'lganida; biznes egasi yangi qarorlarni, noan'anaviy g'oyalarni muhokama qilish kabi vaziyatlarda biznes-konsultantlar xizmatidan foydalangan taqdirda bu faoliyat samara beradi.

Dunyoga mashhur biznes-konsultantlardan biri 80 million dollar boylikka ega amerikalik tadbirkor, investor, yozuvchi, operator-motivator, 76 yoshli Robert Kiyosaki hisoblanadi. U shaxsiy moliya va biznes ta'limga ixtisoslashgan "Rich Dad Company" ga asos solgan. Kitoblar, vebinar, videoblog, audio materiallar, onlayn o'yinlar, seminarlar, kouching va vorkshoplar yordamida o'qitishni amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek, u "Cashflow" ("Pul oqimlari") ishbilarmolik uyining yaratuvchisi sifatida turli yoshdagi kishilarni moliyaviy savodxonlik va biznes-tushunchalarga oflayn va onlayn rejimlarda o'rgatish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Kiyosaki 47 yoshida "Boy ota, kambag'al ota" va keyincha "Pul oqimining kvadranti" hamda "Boy otani investitsiyalash bo'yicha yo'riqnoma" nomli kitoblarini yozadi. Bu uchala kitob "Uoll-strit djurnal", BusinessWeek va "Nyu-York tayms" nashriyotlarining chop etilgan eng yaxshi bestsell (bozori chaqqon) kitoblar o'ntaligi qatoriga kirgan. U 26 ta kitobning muallifi, kitoblari 51 tilga, jumladan, o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, 109 ta davlatlarda 27 mln. nusxadan ko'proq sotilgan [13].

Hozirgi vaqtda R.Kiosaki "Yahoo Finance" moliyaviy sharhlovchi platformasida biznes-konsalting faoliyatini dunyo bo'ylab faol olib borilmoqda. Uning "ESBI - pul oqimining to'rtta kvadranti" biznes-ta'lim g'oyasi xalqaro darajada e'tirofga erishgan. Bu g'oyaga muvofiq u "shaxsning daromad zanjiri"ni to'rtta:

- 1) yollanma xizmatchining ish haqi;
- 2) o'zi uchun ishlovchining daromadi;
- 3) biznes egasining daromadi;
- 4) sarmoyadorlarning foiz daromadidan tarkib topishini yorqin va ishonchli asoslab bergan.

Mahorat darslarida R.Kiosakining "ESBI" biznes-ta'lim g'oyasini yaxshigina o'rganib olgan har bir hozirgi va bo'lajak tadbirkor o'z tadbirkorlik subyekting moliyaviy holatini yanada yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining "Biznes konsalting" shaklini mamlakatimizda qo'llash evaziga biznes subyektlarining tadbirkorlik ko'nikmalarini tajribali biznes-ekspertlarining malakali yordam va maslahatlari orqali rivojlantirish va biznes-jarayonlarining samaradorligini keskin oshirish imkoni kengayadi, deb o'ylaymiz.

10. Mahalla tadbirkorligi tashkilotchisi. Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining Yangi O'zbekistonga xos innovatsion shakli sifatida mahalla darajasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadigan "hokim yordamchisi" instituti tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda PF-29-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoniga [2] muvofiq 2022-yil 1-yanvardan boshlab mamlakatimizning har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta'sis etildi.

"Hokim yordamchisi" lavozimining mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalari va faoliyat yo'nalishlari ichki imkoniyatlarini ishga solish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash; mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligi bilan shug'ullanish uchun imtiyozli kreditlar olishga ko'maklashish; ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish; tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarning tegishli tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkil etish kabilardan iborat.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish maqsadida "Hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" tashkil etilgan bo'lib, u yangi tashkil etiladigan

tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish uchun kredit resurslarining limitini berish, har bir mahallada fuqaroni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish uchun vaucherlarni ajratish, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kredit, subsidiyalar, moddiy yordam va nafaqalar ajratish uchun xulosa berish kabi tadbirkorlikni rivojlantirish dastaklaridan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzurida tashkil etilgan Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tomonidan hokim yordamchilari uchun "Onlayn mahalla" platformasi ishlab chiqilgan va zamonaviy planshet qurilmalari bilan ta'minlangan holda hokim yordamchilari uchun mahallada tadbirkorlikni an'anaviy va onlayn tarzda, jumladan, axborot almashish, murojaatlarni onlayn tarzda qabul qilish va muammolarni vaqtda yechish imkoni vujudga keladi.

Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida 9 ming nafardan ziyod hokim yordamchilari o'z faoliyatini olib bormoqda. Hokim yordamchilari faoliyatining dastlabki natijalari tahlili[36] ko'rsatyaptiki, ular 2021-yilning yanvar-mart oylari davomida 6 million 900 ming xonadonni xatlovdan o'tkazib, 4 ta toifaga ajratgan:

- ❖ 11% - xonadonlar kam daromadli;
- ❖ 47% - qo'shimcha daromadga ehtiyoji bor;
- ❖ 6% - ijtimoiy himoyaga muhtoj;
- ❖ 36% - o'ziga to'q oilalar.

Joylardagi mutasaddi rahbarlar va hokim yordamchilari birinchi va ikkinchi toifadagi xonadonlar bilan ishlar olib bormoqda. Birinchi chorakda: 736 ming nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi; 54 ming nafar fuqarolar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi; 50 mingta oilaviy tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun 1 trillion 300 milliard so'm kredit va 20 milliard so'm subsidiya ajratildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida hududlarda 47 mingta yangi tadbirkorlar faoliyati yo'lga qo'yildi, 8 mingta kichik sanoat va servis loyihalari ishga tushirildi, 2,5 mingta korxonalar quvvatlari tiklandi va oshirildi.

Shunday qilib, "hokim yordamchisi" amaliyoti mahallada istiqomat qiluvchi aholining turli shakllardagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun munosib imkoniyatlarini yaratib berish evaziga ishsiz va kam ta'minlangan odamlarning mehnat layoqati va tadbirkorlik qobiliyatini ro'yyobga chiqarishda ko'maklashadi.

Yuqorida tavsiflangan tadbirkorlik qobiliyatining mikroiqtisodiyotda namoyon bo'lish va ayirboshlashning 10 ta an'anaviy va zamonaviy shakllari mehnat yoshiga yetgan aholi qatlamlari tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, pul topish uchun qulay iqtisodiy imkoniyat hisoblanadi. Bunday band bo'lish va kambag'allikdan chiqish imkoniyatidan unumli foydalanish uchun kishi o'z tadbirkorlik fazilatlarini rivojlantirishi kerak bo'ladi.

**Xulosa.** Yuqoridagilarga asosan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlaridan biri ishlab chiqarishning shaxsiy omili sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatini biznes amaliyotida namoyon etib, unumli ishlata olishdan iborat. Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining "yakka tartibdagi tadbirkor", "kichik tadbirkor", "menejer", "oilaviy tadbirkor" kabi an'anaviy shakllariga yetarlicha tafsilot berilgan. Lekin ushbu qobiliyat namoyon bo'lishining innovatsion va zamonaviy shakllarining o'ziga xos jihatlari iqtisodchi olimlari tomonidan yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli maqolada "o'zini o'zi band qilgan shaxslar", "ichki tadbirkor", "innovatsion tadbirkor", "investor", "biznes-konsultant" kabi tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishi zamonaviy shakllarining o'ziga xos xususiyatlari batafsil ko'rib chiqildi.

Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining Yangi O'zbekistonga xos innovatsion shakli sifatida mahalla darajasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadigan "mahalladagi hokim yordamchisi" instituti tashkil etadi. "Hokim yordamchisi" amaliyoti mahallada istiqomat qiluvchi aholining turli shakllardagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun munosib imkoniyatlarini yaratib berish evaziga ishsiz va kam ta'minlangan odamlarning mehnat layoqati va tadbirkorlik qobiliyatini ro'yyobga chiqarishda ko'maklashadi.

**Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида” ги Қонуни, 2020 йил 24 июль. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2020 й., 03/20/630/1101-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 декабрдаги ПФ-29-сон “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устувор йўналишлари тўғрисида”ги Фармони. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 23 декабрдаги 806-сон “Ўзини ўзи банд қилган шахс сифатида фаолиятни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарор. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.12.2020 й., 09/20/806/1662-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 июндаги ПҚ-4742-сон “Тадбиркорлик фаолияти ва ўзини ўзи банд қилишни давлат томонидан тартибга солишни соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.06.2020 й., 07/20/4742/0736-сон; 10.02.2021 й., 09/21/6165/0104-сон.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 7 январдаги “Якка тартибдаги тадбиркорлар шуғулланиши мумкин бўлган фаолият турлари рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги 6-сон қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.05.2022 й., 09/22/255/0412-сон.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида” Қонун. 69-П-сон 25.05.2000. <https://lex.uz/docs/31846>.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 ноябрдаги “Якка тартибдаги тадбиркорлар томонидан ёлланган ходимларни давлат солиқ хизмати органларида ҳисобга кўйиш ҳамда солиқ солинадиган даромадлар ва чегириладиган харажатлар ҳисобини юритишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида” 707-сон қарори. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 23.11.2021 й., 09/21/707/1088-сон).
8. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Оилавий тадбиркорлик тўғрисида. ЎзР қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й. 17-сон, 188-модда, 2017 й. 1-сон, 1-модда.
9. Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни, 2019 йил 25 декабрь. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.12.2019 й., 03/19/598/4221-сон. <http://icpmconsulting.com.ua/biznes-konsalting>.
10. **Абулқосимов П., Қулматов А. Тадбиркорлик сермашаққат фаолият. //Иқтисод ва ҳисобот, 1997, №9. 9-б.**
11. Бархатова Н. М. (1999). Семейный бизнес и семьи в бизнесе // ЭКО, №2. (<http://ecotrends.ru/subscribe/1841-2014-03-06-10-13-03>)
12. Друкер Питер, Макьярелло Джозеф. Менеджмент. : Пер.с англ. – М.: ООО “И.Д.Вильямс”, 2010. – 704 с. С: 679.
13. Кийосаки, Роберт. Материал из Википедии — свободной энциклопедии. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
14. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик: ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. –Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2005 й., – 444 б.
15. Наврўззода Б.Н. Иқтисодий қобилиятларнинг ўлчов мезонлари. // «Psixologiya» ilmiy jurnal, 3-сон, 2014- yil. 6 б.
16. Наврўззода Б.Н. Баркамол авлоднинг иқтисодий салоҳиятини шакллантириш. // Бухоро Давлат университети илмий ахбороти, 2-сон, 2010 й. 32-38 б.
17. Наврўззода Б.Н.Инсон иқтисодий камолоти босқичлари,мезонлари ва даражалари. //Бухоро Университети Илмий Ахборотлари,4 сон. 2004 й. 63-70 б.
18. Навруз-зода Б.Н. Управление бизнесом по формуле “Собственник минус менеджер”.//Сб.науч.трудов по матер. междунар. науч. конф. “Проблемы менеджмента и рынка”. Оренбург.1996. С.147-152.



19. Навруз-Зода Л.Б. Предпринимательская модель развития человеческого капитала. // В сборнике: “Духовность и экономика: проблемы становления человеческого капитала”. Материалы международной научно-теоретической конференции, 15 марта 2010 г. КЭУ Казпотребсоюза. Караганда. 2010. С: 136.
20. Наврузода Л.Б. Предпринимательская способность как фактор производства. //Девятнадцатые Международные Плехановские чтения “Образование и социально-экономическое развитие в начале третьего тысячелетия” : Тезисы докладов аспирантов, соискателей, студентов магистратуры и бакалавриата (2 февраля 2006 г.). Ч.II. – Выездная сессия в г. Ташкенте. – М.: изд-во РЭА, 2006. – с.289.
21. Ўзбекистон олий таълим тизимида сифат таъминоти: UQASE МОДЕЛИ / проф. Б.Наврўзода ва доктор К.Мачадо таърири остида. Брюссель, Брюссель эркин университети (VUB). – Тошкент, “Xarizma design” нашриёти, 2008. – 94 б.
22. Pinchot G. 1985. Intrapreneuring. New York: Harper & Row.365 p.
23. Эшов М.П. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиши: омиллар, натижалар ва истикболлар. Монография. –Т.. «Маънавият», 2017. – 16 б.
24. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistika to‘plami: 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. T.: 2021. 113 b., – 239-240 bb.
25. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. 2017-2020. O‘zstat. T.: 2021. 187-189 bb.
26. В Узбекистане вдвое увеличилось количество предпринимателей. <https://nuz.uz/obschestvo/1213737-v-uzbekistane-vdvoe-uvelichilos-kolichestvo-predprinimateley.htm>
27. Менеджер. QOMUS.INFO. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/menejer-uz/>
28. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. <https://www.surxonstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/11807-o-zbekistonda-so-nggi-yillarda-korxonava-tashkilotlar-soniqanchaga-ko-paygan>
29. <https://proforientator.ru/professions/menedzher-v-organizatsii/> Менеджер в организации (производство, коммерческие организации).
30. O‘zbekiston respublikasidagi korxonava tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha ma’lumot. –T.: 2023. 18, 26 b. [https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/registrpressrelis\\_11\\_04\\_2023\\_uzb.pdf](https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/registrpressrelis_11_04_2023_uzb.pdf)
31. <https://www.ifb.org.uk/ifb-research-foundation/news/coronavirus-hit-family-business-sector-continues-to-be-the-backbone-of-the-uk-economy/>
32. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
33. Differences among Entrepreneurship, Intrapreneurship, Manager. <https://www.iedunote.com/difference-entrepreneur-intrapreneur-manager>.
34. 1-yanvardan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning faoliyati yangicha tartibda soliqqa tortilmoqda — Soliq qo‘mitasi. <https://daryo.uz/2024/01/05/1-yanvardan-ozini-oziband-qilgan-shaxslarning-faoliyati-yangicha-tartibda-soliqqa-tortilmoqda-soliq-qomitasi-tushuntirish-berdi>.
35. Бизнес-консалтинг. ICPM Consulting «Консалтинговый центр института профессиональной сертификации менеджеров» <http://icpmconsulting.com.ua/biznes-konsalting>.
36. Президент хоким ёрдамчилари фаолиятини ижобий баҳолади. <https://review.uz/oz/post/prezident-polojitelno-ocenil-rabotu-pomoshnikov-xokimov>.
37. <https://www.un.org/ru/observances/micro-small-medium-businesses-day>. [https //www.oecd.org](https://www.oecd.org)